

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT AVTOMOBIL YO'LLAR INSTITUTI

KAFEDRA: "O'zbekiston tarixi va siyosatshunoslik"

Sohibqiron Amir Temur tavalludining 674 yilligiga bag'ishlanadi.
MAVZU: Amir Temur va uning siyosiy-huquqiy, ma'naviy-ma'rifiy qarashlari.

REFERAT

BAJARDI: "I va B" fakulteti 320-06 guruh talabasi Qurbonov.N.R.
RAHBAR: "O'zbekiston tarixi va siyosatshunoslik" kafedrasida dotsenti
G. Jamolova

TOSHKENT-2010

REJA

- 1.Amir Temurning hayoti-ijtimoiy siyosiy faoliyati SOLNOMASI.
2. Amir Temur faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari haqida
- 3.“Temur tuzuklari” haqida
- 4.MUQADDAS FAXR

Amir Temurning hayoti-ijtimoiy siyosiy faoliyati

Amir Temur 1336 yil 9 aprelda Shahrisabzda (Kesh) dunyoga kelgan. Otasi o'z zamonasining taniqli bekalaridan bo'lgan. Amir Temur (boshqa nomlari Timur, Temur, Taimur, Timur Lenk, Timur i Leng, Tamerlane, Tamburlaine, yoki Taimur-e-Lang, tarjimasi Temur lang(Temur oqsoq), janglardan birida lat yeganlaridan so'ng shunday deb atala boshlangan) (1336—Fevral 1405) 14 asrning buyuk turkiy lashkarboshi, O'rta Osiyodagi Temuriylar Davlatining hukmdori (1370—1405) va 1506 yilgacha turgan Temuriylar sulolasining asoschisi.

Bu davrda ya'ni XIV asr oxiri va XV asr O'rta Osiyo xalqlari ijtimoiy iqtisodiy,siyosiy,madaniy-ma'naviy,ma'rifiy hayotidagi tub burilish,gullab yashnagan palla,ikkinchi uyg'onish davri bo'lib tarixda abadiy qoldi. Ana shu paytlarda tarixda "Turon","Turkiston" va "Movaraunnahr" nomi bilan mashhur bo'lgan Vatanimiz jahon sivilizasiyasining beshiklaridan biri sifatida olam uzra dovruq taratdi.

Ma'rifatli Movaraunnahr ruhi, Samarqand, Toshkent, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Termzning noyob tarixiy yodgorliklari Buyuk ipak yo'li,Sharq mutafakkirlari yaratgan bebaho ta'limotlar, Amir Temur va temuriylar davrida gullab yashnagan ilm-fan,me'morchilik,tasviriy san'at, naqqoshlik, musiqa,rivojlangan savdo-iqtisodiy munosabatlar,barpo etilgan mustahkam qudratli davlat va uning ichki va tashqi siyosati Evropadagi Uyg'onish jarayoniga hayotbaxsh ta'sir etgani tarixiy haqiqatdir.O'sha kezlarda ilm-fan,madaniyat,me'morchilik va boshqa sohalarda erishilgan ulkan muvaffaqiyatlar o'zining ulug'vorligi,nafisligi,umumbashariy g'oyalarga boyligi,badiiy shakillarining xilma-xilligi,ma'naviy sofligi va etukligi bilan insoniyat aql-idroki va tafakkurini yuksaklikka ko'tardi,G'arbni Sharq bilan yaqinlashtirdi.

Shu jihatlarni ko'zda tutib tadqiqotchilar bu davrlarni diyorimizning oltin asri Renesana-Sharq Uyg'onish davri deb nomlaydilar.Prezidentimiz ta'birlari bilan aytganda,"Temuriylar davri haqiqatdan ham ilm-fan,

madaniyat va morifning behat ravnoq topishini ta'minlagan Sharq Uyg'nish davri edi" Ikkinchi Sharq Uyg'onish davri madaniyati va ma'naviyati o'z-o'zidan, Tasodifiy ravishda paydo bo'lgan emas.Uning o'ziga xos sabablari, qonuniyatlari,o'zaro uzviy bog'lanish bo'lgan siyosiy-ijtimoiy,iqtisodiy, ma'naviy,g'oyaviy asoslari,omillari mavjud.

Amir Temur ma'naviy-ma'rifiy ta'limotining mazmuni,namoyon bo'lishi shakillari xususida fikr yuritishdan oldin uning ana shu ta'limoti shakillanishining zaminlari,diniy-ahloqiy manba va ildizlari haqida aytib o'tishga to'g'ri keladi.



Amir Temur ulug' davlat arbobi bo'lishi bilan birga zamonasining yaktasi, komil fozil, benazir dahosi, Yaratganning nazari tushgan mislsiz qobiliyat va is'tedod egasi, ilm-fan va madaniyatning noyob sohibi edi.


“Tarag'ay Bahodir og'li Amir Temur yoshlik chog'ida mard, dovyurak, g'ururli, o'tkir zehn va aqlu idrok egasi bo'lib o'sdi. Turli dunyoviy ilmlarni, harbiy san'atni egalladi. Qu'roni Karimni yod oldi, hadis ilmini o'rgandi.

Imon-e'tiqodli, halol-pok inson bo'lib etishdi”.

Amir Temur ulug'ligining zaminida uning ma'naviy sifatleri turadi. Amir Temur Xoja Shamsuddin Kulol, Sayyd Amir Kulol, Mavlino Zaynuddin Abu Bakr Toybodiy, Mir Sayyd Baraka singari ulug' diniy allomalarni o'ziga pir deb bilgan, ularning ma'naviy-ruhiy madadlaridan, ta'limotlaridan doimo mislsiz kuch –quvvat olgan, buyuk davlat tizimini yaratish va mustahkamlashda foydalangan.

SOLNOMASI.

- 1336 yil Temurbekning tavallud topishi (9 aprel Shahrizabzga qarashli Xo'ja Ilg'or qishlog'i)
- 1360 yil Temurbekning otasi Tarag'ay bahodir vafot etdi.
- 1360-1361 yil. Temurbek movaraunnahrni bosib olgan Mo'g'iliston xoji Tug'luq Temurxon (1348-1363) xizmatida.
- 1362 yil Temurbek Moxanda turkman Alibek Joniqurboniyqo'lida tutqunlikda (62 kun)
- 1363 yil Temurbek amir Xusayn bilan birgalikda Seiston Hokimi Malik Qutbiddinning taklifi bilan yordamga bordi. Zuranj qal'asi uchun bo'lgan urushda o'ng qo'li va o'ng oyog'dan yarador bo'ldi. Temurbek amir Xusayinning say-harakati bilan mug'ullar Movaraunnahr tuprog'idan surib chiqarildi. (1363 kuz fasli). 1364 yil Samarqandda qurultoy chaqirildi. Durji ibn Ilchigiday ibn Duvaxon Chig'atoy usulida xonlik masxadiga o'tkazildi (20 mart). Shu munosabat ila Temurbek bilan amir Xusayin oralariga nizo tushdi.
- 1365 yil Mo'g'iliston xoji Ilyosho'jaxon (1363-1369) katta qo'shin bilan Turkiston bilan Movaraunnahr ustiga bostirib kirdi. (aprel).
- Chinoz atrofida mug'illar hamda Temurbek bilan amir Xusayn qo'shinlari urtasida katta urush bo'ldi.
- Ittifoqchilar (Temurbek bilan amir Xusayn) mag'lubiyatga uchradilar (22 may). Bu urush tarixda “Jangi loy” deb ataladi.
- Mag'ullar Samarqand ostonasida Shaharda xokimiyatni sarbadorlar o'z qo'llariga oldilar. Shahar xalqi sarbadorlar yetakchiligida mug'ullarni tor-mor



- 1389 yil Amir Temurning Mug'uliston ustuga Anqo to'raga qarshi qo'shin tortishi. Bolig' yulduzning olinishi
- 1390 yil Xizrxo'ja o'g'lon, Anqoto'ra va Mug'ulistonni biryog'lik qilish xususida Oq yerda qurultoy chaqirilishi.
- 1391yil Dashti qishloqqa, Toxtamishxonga qarshi katta harbiy yurushning boshlanishi.
- 1392-1396 yillar Fors va Iroqi arab ustiga qilingan besh yillik yurush. Samur, Terek daryosi bo'yida va To'xtamishxinning mag'lubiyatga uchrashi.
- 1397 yil Bog'i shamol va Bog'I Dilkisho chorboqlari bunyod etildi.
- 1398 yil Hazrat Sohibqiron qishlash uchun Oxangaronga keldi.
- 1399-1404 yillar Iroqi arab va Shom ustuga uyushtirilgan yetti yillik harbiy yurush. Qumis, Xomi, Baalbek, Xulla va Vositning olinishi.
- 1404yil Amir Temut Samarqandga qaytdi. Hazrat Sohibquron yana betob bo'lib qoldi. Xitoyga yurishning boshlanishi. Amir temur lashkar bilan Samarqandan chiqdi.
- 1405-18.02. Soxibquron Amir Temurning vafoti. (O'tror shaxri).



Temuriylar Davlatining 1405 yildagi haritasi

AMIR TEMUR FAOLIYATINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI HAQIDA.

- Brinchidan, u mamlakatda kuchayib ketgan feodal tarqoqlikka barham berdi, el-yurtini o'z tig'i ostida birlashtira oldi. Markazlashgan yirik feodal davlatga asos soldi. Bu bilan zirotchilik, hunarmandchilik, savdo –sotiq va madaniyat rivojiga mustahkam zamin yaratdi.
- Ikkinchidan, Amir Temur bir qator xalqlar va yurtlarga mustamlakachilar zulmidan ozod bo'lishga yordam berdi. Masalan o'sha davrning eng qudratli podshohlaridan hisoblangan Boyazid Ildirimnii (1389-1402) tor-mor keltirib (1402), Usmonli turklarning istibdodligi turub qolgan “Bolqon” yarim orolidagi xalqlar va mamlakatlarga ozodlik bag'ishlanadi. Oltin O'rda xoni To'xtamishni (1376-1395) ikki hukumronligidan qutulishini 300 yilga tezlashtirdi.

Uchinchidan Turkiston zaminini hunarmandchilik, ilm-fan va madaniyat rivojlangan ilg'or mamlakatlarga aylantirdi. Amir Temurning sa'y-harakati bilan obod etilgan shaharlar kasabalar qishloqlarni Shahrisabz, Buxoro, Yassi (Turkiston) shaharlarda qad ko'targan imoratlar “Temur va temuriylar davlati”, “Temuriylar madaniyati”, “Ulug'bek va Samarqand”, “Observatoriya maktabi” kabi ulug' tushunchalarni dunyoga kelishi va xalqlari tarixiga oltin harflar bilan yozilishi ham Amir Temur nomi bilan bog'liqdir.



“Temur tuzuklari” haqida.

Amir Temur (1336-1405 yillar) o'zining siyosiy qarashlarini «Temur tuzuklari» asarida ellik yildan ortiq davr (1342-1405 yy.) tarixi bilan birga, davlat va uning tuzilishi to'g'risida ham qimmatli ma'lumotlar beradi. Asarda davlat va uning amal qilish tamoyillari, me'yorlari, munosabatlari uni barpo etish, mustaqamlashni kengash orqali amalga oshirishda o'z ifodasini topganligini ta'kidlash lozim. Amir Temur zukko, tajribali siyosatdon va davlat arbobi sifatida, davlatning markaziy apparati va mahalliy hokimiyatning qanday, qaysi ijtimoiy toifalarga tayanishini, ularning manfaatlarini uyg'unlashtirish, mansabdor shaxslarning burch va vazifalarini belgilab berar ekan, jamiyatni ma'lum ijtimoiy - siyosiy guruhlar tayangan holda boshqarish lozimligini ta'kidlash bilan, ularning manfaatlarini boshqa guruhlar manfaati bilan birga hisobga olish zarurligi to'g'risida ham muhim fikr bildiradi. U jamiyatni 12 toifaga bo'lib, ularga tayangan holda boshqarish ishlarini amalga oshirgan. Ular: 1) sayyidlar, ulamo va shayxlar; 2) bilimdon kishilar; 3) duogo'y taqvodorlar; 4) amirlar, sarhanglar, sipohsolarlar; 5) sipoh bilan raiyat; 6) dono va ishonchli kishilar; 7) vazirlar, sarkotib va devon bitikchilari; 8) hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muxandislar; 9) muhaddislar (hadis olimlari va roviylar); 10) sofiylar va oriflar; 11) hunar va san'at ahli; 12) sayyoh va tijorat allaridan iborat.


Davlatni idora etishda vazirlar, amirlar va noiblarning roliga alohida e'tibor berib, sohibqiron Amir Temur sadoqatli, axloqiy pok, adolatpesha, tinchliksevar va tashabbuskorlarni qadrlagan.

Amir Temur vazirlar to'rt fazilatga ega bo'lishlari shartligini ta'kidlaydi: 1) asllik, toza nasllik va ulug'vorlik; 2) aqlu farosatlilik; 3) sipoh bilan raiyat ahvolidan boxabarlik va ularga g'amxo'rlik ko'rsatish: ular bilan yaxshi muomalada bo'lish; 4) sabru bardosh, muloyimlik. U joylardagi uluslarga mustaqil siyosat yurgizishga ham imkoniyat bergan. Erlarni o'zlashtirganlar hukumat tomonidan rag'batlantirilgan. Temur davlat boshqaruvida jamiyat a'zolarini, mavjud toifalarga bo'lgan munosabatda ularni «ishonch bilan qo'rquv» o'rtasida saqladim, desada amalda, unda ishonch, kechirimlik, sabr - qanoat tamoyillari ustuvor bo'lib, mamlakat, davlatning kuch - qudratini adolat asosida qurganligini alohida ta'kidlash lozim. U adolat orqali kuchli markazlashgan davlat tuzishga muvaffaq bo'lgan. Davlat ishlarini yuritishda islom bilan birga dunyoviy ilmga, tamoyillarga alohida e'tibor bergan va ularga amal qilgan.

- Amir Temurning nomi bilan bog'liq bo'lgan uning “Temur tuzuklari” (Tuzuki Temuriy), ya'ni Temurning boshidan kechirganlari nomlari bilan atalib kelgan. “Temur tuzuklari” Temur kodeksi, ya'ni Amir Temurning davlatni boshqarish va uni idora qilish bayon etilgan bo'lib, xandalar to'plamidir.
- “Temur tuzuklari” ikki qismdan iborat: birinchi qism Amir Temurning etti yoshidan tortib, to so'ngi kunigacha bo'lgan hayoti tasvirlangan.

Ikkinchi qismi Jahongir Sohibqiron Temur nomidan shahzodalarga qarata aytilgan vasiyatlar, pand-nasihatlar o'rin olgan. Unda Jahongir o'z vorislariga qarata davlatini idora qilish san'atini nozik sirlari, qoidalari haqida amir, vazirlar, hokimlarni tanlash ularni joy-joyiga qo'yish, qo'shin boshliqlari, ularning xizmatlarini taqdirlash haqida vasiyat qilgan edi. Sohibqiron Amir Temurning ibratli hayotiy pand-nasihatlari va purma'no o'gitlarning har biri mazmun va ma'no kengligi, mantiqning kuchliligi, teranligi ta'siri umuminsoniy qadriyatlar asosiga qurilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi, ular hadsiz xazina, odob-axloqqa oid dasturlar uchun amaldir.

Sohibqiron Amir Temurning bergan nasihat va saboqlari uning o'z davri qanchalik muhim bo'lgan bo'lsa, bugun mustaqil O'zbekistonni rivojlanishida ham uning ilgari surgan g'oyalari o'z ahamiyatini yuqotgan emas. Bugungu turkiston xalqlarining birlashishida, o'zaro munosabatlarning rivojlanishida Temur tuzuklaridan foydalanish katta ahamiyat kasb etadi.



Mustaqillikka erishilgandan keyin.

Mustaqillikka erishganimizdan keyin olti asrdan ko'p vaqt o'tgan bo'lsada, xalqimiz dahosining timsoliga aylangan ulug' Amir Temur bobokalonimizning hurmatini joyiga qo'ya oldik. Nomi etti iqlimga mashhur bo'lgan ajdodimiz mustaqillik, istiqlol tufayli o'z vataniga qaytdi.

Mamlakatimiz markazida, Toshkent shahri o'rtasida Amir Temur ochildishi xalqimizning milliy ongi, milliy g'ururi o'sishida kuchli ijobiy ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 29-dekabrdagi "Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash to'g'risida" gi Qarori, Prezidentning 1996-yilni Amir Temur yili deb e'lon qilish haqidagi Farmoni bu masalada alohida ahamiyatga ega bo'ldi.

Sharq olamida "Ilmu adab qubbasi" deb e'tirof etilgan qadimiy Kesh-Shahrisabzda, dunyoga Amir Temurday ulug' zotni etkazib bergan va kamolga etkazgan tabarruk makonda sohibqironga haykal qo'yilishi va shahar bayrog'iga Islom Karimov tomonidan "Amir Temur" orderining qadab qo'yilishi xalqimiz ulug' ajdodi xotirasini hamisha yuragida, qalb to'rida saqlab kelayotganligining amaliy isbotidir.

Yunesko qarori bilan Amir Temurning 660 yillik yubileyi dunyoning 50 dan ortiq mamlakatida keng nishonlandi. Tantanalarning eng kattasi Fransiyaning paytaxti Parijda ham bo'lib o'tdi.

O'zbekiston Prezidenti 1996-yilning aprel oyida "Temuriylar davrida ilm-fan, madaniyat va maorifning gullab yashnashi" ko'rgazmasining ochilishida mamlakatimizdan borgan nufuzli hay'ayga boshchilik qildi. U Yunesko ning o'sha kunlari bo'lib o'tgan Ijroiya kengashi sessiyasida "O'tmishsiz kelajak, hakorliksiz taraqqiyot bo'lmaydi" degan mavzuda nutq so'zladi. XIV asrdagi ulkan va yorqin siymo-Amir Temurning tutgan o'rni va ahamiyatiga alohida to'xtaldi, uning jahon tarixiga qudratli va gullab-yashnagan davlat barpo etib, o'rta asr dunyosining asl madaniy va ma'rifiy markazlaridan biriga aylantiganini ta'kidladi.

Islom Karimovning o'sha nutqida O'zbekistonning o'ziga xos yangilanish va taraqqiyot yo'li quyidagi uchta muhim shartga asoslanishi qayt etildi. Bular: umuminsoniy qadriyatalarga sodiqlik, milliy an'analar, din va ma'daniyatni qayta tiklash va mustahkamlas, xalqimiz ma'naviy merosini rivojlantirib, uni hozirgi zamon sivilizasiyasi yutuqlari bilan boyitish; va nihoyat, inson o'z salohiyati va iste'dodini erkin ravishda namoyon qila olishi uchun sharoit yaratish" dan iboratdir.

Amir Temur qadriyatlarining tiklanishi xalqimizning milliy g'ururini, milliy ongini yuksalirish, farzandlarimizni, kelgusi avlodni ulug' ajdodlarimizning nomlari va meroslari bilan faxrlanishga o'rgatish uchun juda muhim va zarurdir.


MUQADDAS FAXR

Vatan va xalq oldidagi burchni nihoyatda teran anglab ish tutgan Amir Temur dahosi beqiyos. Uning amri bilan bunyod etilgan yo'l va ko'priklar, qasrlar, bog'lar, muhtasham me'moriy obidalar, ko'rkam masjidlarining xalq ma'naviyatini yuksaltirishdagi ahamiyati ham benihoyadir. Shu ma'noda ulug' bobokalonimiz tarixining barcha jihatlarini to'kis o'rganish va uning vasiyatlariga amal qilishda hikmat ko'p. Zotan, Amir Temur bobomiz tarixi, Vatanimizning olti asrlik muhtasham tarixi tiklanishi hamdir.



Shuning uchun ham "Amir Temur siymosi" kitobini bugun ozod Vatanimiz oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, maktablar, kollejlarda va litseylarda tahsil olayotgan har bir talaba-yu o'quvchi qo'ldan qo'ymay o'qiydigan, kutubxona-yu kitob javonlarimiz to'ridan joy olishga arzigulik asarlardan biri sifatida baholash mumkin.

Muhtaram adibimizning keyingi yillarda chop etilgan "Ona lochin vidosi", "Til va El" kabi kitoblari qatori "Amir Temur siymosi" ilmiy badiasi ham ming-minglab istiqlol farzandlari ongu shuuriga ma'naviy oziq beruvchi go'zal asarlar sifatida ular ko'nglidan joy olishi shubhasiz.



Sohibqiron bobomizning vasiyat ohangida aytilgan bu donishmandona so'zlari istiqlolga erishgan yurtimizda davlatchilik an'analarini shakllantirishda dasturulamal bo'layotgani boisi ham shunda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta'biri bilan aytganda, "Biz o'z yurtimiz va xalqimizning sharaflari bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Mana shu muqaddas faxr tuyg'umimizning muazzam timsoli - shubhasiz, ulug' jahongir bobomiz Amir Temur Muhammad Tarag'aydir

Foydalanilgan adabiyotlar..

1. I.A.Karimov “Amir Temur faxrimiz, g’ururimiz” T. 1991 y. “O’zbekiston ”
2. I.A.Karimov “Amir Temur davri insoniyat tarixida yorqin iz qoldirdi. Mana’viy yuksalish yo’lida” T. 1998 y.
“O’zbekiston ”
3. I. A. Karimov. “Yuksak ma’naviyat engilmas kuch”. T. “Ma’naviyat”, 2008y.
4. Axmedov N “Amir Temur: rivoyat va haqiqat”. T. “Qomuslar bosh taxririya”, 1996.
5. Azamat Ziyov “O’zbek davlatchiligi tarixi”, T.”Sharq”, 2000.
6. Axmedov B. “Sohibqiron Temur”-T. 1996yil
7. H.Boboev, Z.G’ofurov “O’zbekistonda siyosiy va ma’naviy-ma’rifiy ta’limotlar taraqqiyoti” Toshkent-2001.

ETIBORINGIZ UCHUN RAXMAT

